

KEMASRULAN A. SANJHI, M. LILYANOR WA, FELI H. H. AW
Koleksi: library archive /song/2016/12

DAFTAR ISI
MUSIC ARI XI AGE PROBLEMS AND SOLUTIONS
Melaksanakan tugas-tugas dan tanggung jawab sebagai dosen

MUSIC ARI XI AGE PROBLEMS AND SOLUTIONS
The International Scientific and Technical Conference



5. 2016/12
T. 2016/12



XALQ MUSIQA MEROSI-YOSH AVLODNI MILLIY G'OYA VA MATKURA RUHIJA TARBIYALASHNING MUHIM OMILI

Tursunova L. X. Jizzax DPI talabasi
Abdukarimova E.J. Jizzax DPI talabasi

Annótatsiya

Ushbu maqolada xalq musiqa merosining ulkan tarbiyaviy-ta'sirchanlik xususiyatini ta'kidlangan holda bugungi kunda ulardan yosh avlod ma'naviy kamolotida foydalanish holati, muammo va imkoniyatlari tahlil qilingan. Shu o'rinda xalq musiqa merosi namunalari ta'lim va tarbiya jarayoniga tadbiiq etilishda yanada samarali natijalarga erishish imkonini beruvchi ilmiy asosli tavsiyalar ilgari surilgan.

Annotation

In this article educating effects peculiarity of people's music inheritance are described using young descendants spiritual maturity positions, problems and opportunities. From them are analyzed at present. Scientific based recommendation which gives effective results in using people music inheritance models in education and upbringing are written.

Kalit so'zlar: xalq musiqa merosi, milliy g'oya, matkura, ta'lim, tarbiya, shaxs, ma'naviy kamolot, namun ta'lim maktablari, pedagogik talab, mezon, dars, darsdan tashqari faoliyat.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida yangi ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'liga o'tishi sharafigi bilan ta'limning milliy g'oya va matkura hamda jahon pedagogikasining ilg'or yutuqlari asosida qayta qurish, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. "Ushbu milliy-ma'naviy tiklanishning tarkibiy mazmunida musiqa ta'limi-tarbiyasini milliy musiqa merosimiz ustuvorligida qayta ishlab chiqish yosh avlodda musiqiy madaniyatni shakllantirish bilan birga milliy, badiiy tafakkurni tarkib toptirish uchun ham muhimdir"

Ma'lumki, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" pedagog xodimlarning kasbiy matakasini oshirishning nazariy va tashkiliy asoslari bo'lib, ta'lim islohotlarining sifat bosqichi yo'nalishlari ham bevosita malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida yangi yo'nalish va samaradorlikni oshirish orqali ijtimoiy, axloqiy va madaniy jihatda maqbul, maqsadli va ehtiyoj darajasida shakllangan shaxslarni tarbiyalashda innovatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanishning dolzarb muammolarini hal etishga qaratilgan.

Shuningdek, ta'lim islohatidagi "Majburiy itoatkorlikdan ongli intizomlilik" tamoyili ko'zda pedagogik jarayonni isloh qilishdagi asosiy tamoyil bo'lib xizmat qilmoqdaki bu, oliy ta'limda ta'lim-tarbiyaga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmun mohiyatini tubdan yangilash imkonini beradi. Milliy musiqiy ta'lim va tarbiya o'z mazmunida insonparvarlik, milliy g'urur va unuminsoniy g'oyalarni mujassam etishi bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy g'oya va milliy matkura ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Milliy g'oya va matkura o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra eng avvalo, xalqimizning milliy qadriyatlariga tayanadi.

Xalq musiqa merosidan yosh avlod tarbiyasida foydalanish orqali ularda ona vatanga, xalqimiz tarixi, tili, adabiyoti, madaniyati, urf-odatlari va an'alariga mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish ularni qadrlash, asrab-avaylash va rivojlantirishga mas'ullik hissi tarbiyalash ta'lim tizimi oldidagi o'z dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydigan vazifalardan sanaladi.

O'zbek xalq musiqa merosi namunalari ta'lim-tarbiya mazmuniga singdirish, shu orqali yoshlarning badiiy-estetik madaniyati va ma'naviy kamolotini shakllantirish borasida e'tiborga molik ishlar amalga oshirilayotgan va bu ishlar muayyan shart-sharoitlarga bog'liq holda davom ettirilayotgan bo'lsa-da, ushbu qamrovi va ko'lamini hamda tarbiyaviy-ta'sirchanlik imkoniyatlari beqiyos katta bo'lgan bebaho xazindadan yosh avlod tarbiyasida yanada samarali foydalanishning zamonaviy talablarga mos yangicha yo'l-yo'riqlari, mezonlarini ishlab chiqish, takomillashtirish va amalga oshirishga tadbiiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Qudratli tarbiyaviy-ta'sirchanlikka, ega bo'lgan xalq musiqa merosi namunalari ta'limning barcha bo'g'inlarida yoshlar tarbiyasiga tadbiiq etish, xususan, ta'lim tizimining eng

umumta'lim shakllantiruvchi bo'lini bo'lgan umumta'lim maktablari va qolaversa, maktabgacha ta'lim muassasalarida tizimli yo'lga qo'yib, bu ishni dars va darsdan tashqari faoliyatlar uyg'unligida olib borish lozim. Bu o'rinda ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlashda qanday omillarga tayanish o'rinni bo'ladi. Ushbu xo'nalishdagi ilmiy izlanishlar va kuzatuvlarimiz umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalaridagi musiqiy-estetik ta'lim va tarbiyaviy faoliyatlarni tahlil quyidagicha pedagogik talab va mezonlar asosida ish tutish maqsadga muvofiq bo'lishi to'g'risidagi xulosaga kelishimizga sabab bo'ldi:

1. Umumta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarni xalq musiqasi merosi namunalari bilan maqsadli tanishtirib borish orqali ularda xalq musiqasi ijodiga qiziqish va muallabbar tuyg'ularni uyg'otish, xalq qo'shiqlarini kuylash, sevib o'rganish bilan o'zi mansub bo'lgan xalqning madaniyatiga chuqur hurmat, iltifor tuyg'ularini shakllantirish, sinf va sinfdan tashqari hamda maktabdan tashqari musiqiy faoliyatlar uyg'unligida olib borilishiga e'tibor qaratish.

2. Dars va darsdan tashqari (badiiy havaskorlik to'g'afaklari, madaniy-omiyaviy va bayram tadbirlari, konsert dasturlarini tayyorlash, ko'rik tantovalarga tayyorgarlik va qatnashishi kabi) faoliyatda xalq musiqasi merosi namunalariga keng o'rin berish va ularni ta'limda tarbiyaviy ta'sirchanlik xususiyatlarini inobatga olish va muayyan pedagogik talab va mezonlarga amal qilish o'rinni bo'ladi. Bu o'rinda:

-asarlarni tanlashda o'quvchilarning yoshi, musiqiy qiziqishi ijrochilik imkoniyatlarini hisobga olish;

-xalq musiqasi merosiga mansub kuy-qo'shiqlar o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra o'quvchilarni musiqiy dunyoqarashi va tafakkurini o'stirishi, natijada ularda tomonroq hodagi musiqasi madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

-xalq musiqasi namunalarining hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan xalq urf-odatlarini, bayramlari, marosimlari, turli mahalliy uslublarga tegishliligi, shuningdek, madaniy merosiy tadbirlar, konsert dasturlariga kiritish imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda ish tutish;

-asarlarni o'rganishda ta'limning boshqa tarkibiy qismlarini, musiqasi savodi, musiqasi tarixi, musiqasi asarlari tahlili, musiqiy ijodkorlikni o'zlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga qaratilish ham pedagog jihatdan to'g'ri yondashuv hisoblanadi.

3. Xalq musiqasi merosiga mansub namunalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbir etishda sinf dasturlariga kiritilgan va o'rganiladigan mavzular bo'yicha o'quvchilarning nazariy bilim va amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini mustahkamlash nuqtayi nazaridan yondashgan holda amalga oshirib borilishi lozim. Bunday ish tutish musiqasi darslarining faoliyat turlari bo'yicha mashg'ulotlarni mazmunli hamda sifat va samaradorlik kasb etishiga olib keladi. Darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilarning qiziqishlariga ko'ra erkin tanloq asosida o'rganilgan kuy-qo'shiqlar musiqiy ta'limning asosiy maqsad va vazifalariga mos bo'lishi e'tiborda tutilishi zarur.

4. Dars va darsdan tashqari faoliyatda o'rganiladigan namunalari o'quvchilarni xalq musiqasining an'anaviy ijrochilik, ya'ni, mumtoz va maqom asarlari, mahalliy musiqiy ustublar, ularni o'ziga xos va musharaklik jihatlari haqida mustaqil va qo'shimcha ma'lumotlar olishlariga imkon yaratishi lozim.

5. Umumta'lim maktablarida faoliyat yurituvchi musiqasi o'qituvchilarni o'quvchilarni xalq musiqasi merosiga mansub asarlar bilan tanishtirib borishda nazariy, amaliy ijrochilik, va uslubiy jihatdan munozam ravishda o'z bilim va malakalarini muttasit oshirib borishi, ko'rgazmali va texnik vositalardan, ta'limning ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalaridan o'rinni foydalanishlari o'quvchilarda musiqasi san'atiga, xususan, xalq musiqasini o'rganishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini oshirib borishiga ijobiy ta'sir etadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq musiqasi merosi namunalari orqali o'quvchi yoshlarning musiqiy madaniyatini shakllantirishda qayd etilgan talab va mezonlar doirasida cheklanib qolmasdan bu yo'lida doimiy ravishda izlanish, yangi-yangi usullardan, tajribalardan foydalanish asosida ish tutish musiqiy ta'lim va tarbiyani zamonaviy talablar asosida, milliy negizda takomillashtirib borishda yangi usullar oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Bo'ronov "O'zbekistonda ma'naviy-madriy siyosatning tadrijiy rivojlanishi" Toshkent, Ma'naviyat, 2016-yil.
2. G.M.Shanipova., G.F.Tojiyova "Musiqqa metodikasi" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent-2012 yil.
3. D.Soipova "Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish" Toshkent, Fan va texnologiyalar markaziy bosmaxonasi, 2006-yil.